

## Inson ichki va tashqi go'zallikka ega bo'lsin

Har qanday rivojlanish islohotlar va olib boriladigan siyosatlar badaliga bo'lishi tayin. Bu sergaklik va majburiyat zamiridagi burchni anglatadi. Xalqning to'kin-farovonligi va jamiyat kayfiyati bevosita shunga bog'liq. Bu ish bilan bandlik siyosatini tushuntirish hamda amaliy harakatda namoyon bo'ladi. Davlatimiz rahbari tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning biri - xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashdir.



Ushbu muhim vazifani ijro etish bugungi kun talabidir. 3-Talabalar turar joyida Institut Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor R.Choriyev, Xotin - qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashi raisi Z.Ismailova, 3-Talabalar turar joyi Pedagog-tarbiyachi A.Xaitova va Gidromilaratsiya fakulteti talabalarining tashabbusi bilan talaba-qizlarining darsdan bo'sh vaqtlarida qo'shimcha kasb-hunarga qaratgan holda Talabalar turar joyida yana bitta qizlarimizni ruxlantiradigan shov-shuv. Buvijonlarimizda bir gap bor onangni otangga pardozsiz korsatma deb, shunday ekan qizlarimiz guzal jozibali latofatli bolsin deb Guzallik saloni to'garaglari o'z ish faoliyatini boshladi.

**Talabalar turar joylari kengashi raisi Saidahmedov Jahongir axboroti.**

**ТИҚХММИ матбуот хизмати**